

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Dinora Ulashova O‘ralboy qizi

Oxus universiteti

Phone: +998996244334

E-mail: dinoraurolboyevna@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. O‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortishi, ularning nutqiy va kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘yin texnologiyalari, boshlang‘ich ta‘lim, ingliz tili, interfaol metodlar, kommunikativ ko‘nikmalar, motivatsiya

Abstract: This article discusses the importance and effectiveness of using game-based technologies in teaching English in primary school. It analyzes how games increase students’ interest in lessons and help develop their speaking and communicative skills. In addition, the study examines the role of various didactic games in expanding students’ vocabulary, as well as enhancing their independent thinking and creativity. The results of the research show that the effective use of game technologies plays a significant role in improving the quality of education.

Keywords: game-based learning, primary education, English language teaching, interactive methods, communicative skills, motivation

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и эффективность использования игровых технологий при обучении английскому языку в начальных классах. Анализируется влияние игр на повышение интереса учащихся к уроку, а также на развитие их речевых и коммуникативных навыков. Кроме того, изучается роль различных дидактических игр в расширении словарного запаса учащихся, развитии самостоятельного мышления и творческих способностей. Результаты исследования показывают, что эффективное использование игровых технологий является важным фактором повышения качества образования.

Ключевые слова: игровые технологии, начальное образование, обучение английскому языку, интерактивные методы, коммуникативные навыки, мотивация

Kirish

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qaratilgan “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichik toifalar yoshiga mutanosibli ta'minlanadi.

Hozirgi globallashtirish sharoitida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinflardan boshlab ingliz tilini o'qitish o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni erta shakllantirish, ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish hamda keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali va zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda, o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ularning faolligini oshiradi, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda bilimlarni oson va tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'yin texnologiyalari orqali o'quvchilarning nutqiy, ijtimoiy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari hamda ularni samarali qo'llash usullarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyot sharhi:

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfdagi o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorga ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. [Samug'janova Xusniya Temurjon qizi]

O'yinli texnologiyalarni o'rganish samaradorligi bo'yicha bir qancha olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular o'yinli texnologiyalarning o'quv jarayonidagi

samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Oxford universiteti tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, o'quvchilar o'yinlar orqali yangi so'zlarni eslab qolish darajasi an'anaviy o'qitish metodlaridan 20% yuqori ekanligi aniqlangan. Boshqa bir tadqiqotda esa, "Kahoot!" platformasidan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini va ishtirokini sezilarli darajada oshirganligi ko'rsatilgan.[Murtazoyeva Mehribon Ulug'bek qizi]

Boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'qitishda uchraydigan qiyinchililarni soddalashtirish uchun o'qituvchi tana harakatidan foydalanishi mumkin. Bu ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi, ingliz tilidagi so'zlarni eslab qolishi va barcha nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tana tili (Body language) –insonlar o'rtasida muloqot qilishda va tana a'zolari orqali namoyon etishda muhim vosita hisoblanib, uni ko'rish, ushlash, harakatlar, imo-ishora va yuz ifodalarida ko'rishimiz mumkin.[Sanakulova Sarviniso]

Yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishning eng muhim jihatlaridan biri bu qiziqarli va ijodiy o'quv muhitini yaratishdir. Aksariyat bolalar uchun ingliz

tilini o'rganish ularning o'rtacha kunidagi navbatdagi mashg'ulotdir. Yosh o'quvchilar uchun qiziqarli o'qitish usullarimavjud bo'lib, bular:

- darslarni qo'shiqlarga aylantirish;
- yangi lug'atni tasvirlash uchun vizual diagrammalar yaratish;
- grammatik qoidalarni eslab qolish uchun mnemonik qurilmalarni rag'batlantirish;
- dars davomida o'z-o'zidan yoki izchil dialoglarni to'qish;
- yakka o'quv mashg'ulotlarini o'yinlar bilan to'xtatish;
- rolli o'ynash orqali lug'atni ko'rib chiqish. O'yin o'quvchilarning o'zaro va

o'qituvchi bilan muloqotga kirishishga bo'lgan qiziqishlarini faollashtiradi, nutqiy hamkorlikka bo'lgan tenglikni yaratib beradi, xamda ular o'rtasidagi an'anaviy psixologik to'siqni olib tashlashga imkon beradi.[Ruziyeva Shahnoza]

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy va amaliy bosqichlarni o'z ichiga oldi. Tadqiqotning nazariy qismida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlil qilindi, o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati o'rganildi. Shuningdek, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar umumlashtirilib, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning samarali usullari aniqlab olindi.

Amaliy tadqiqot bosqichida kuzatish, tajriba-sinov va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Dars jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanilgan guruh (tajriba guruhi) hamda an'anaviy metodlar asosida o'qitilgan guruh (nazorat guruhi) tashkil etildi. Har ikki guruhda o'quvchilarning bilim darajasi, lug'at boyligi va nutqiy faolligi o'rganilib, natijalar o'zaro solishtirildi.

Tadqiqot davomida didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar hamda vizual vositalardan keng foydalanildi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, ishtiroki va o'zlashtirish darajasi muntazam ravishda kuzatilib, qayd etildi.

Olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari o'yin texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishini ko'rsatdi.

Asosiy qism

Hozirgi kunda maktablarda dars paytida o'yin texnologiyalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari o'yin faoliyatiga moyil bo'lgani sababli, o'yin orqali o'qitish ularning psixologik va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin texnologiyalari yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda bilimlarni oson va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'yin jarayonida o'quvchilar erkin fikrlaydi, muloqotga kirishadi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda o'yinlarning bir necha turlari ajratiladi: didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va harakatli o'yinlar. Didaktik o'yinlar orqali yangi bilimlar mustahkamlanadi, rolli o'yinlar o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi, harakatli o'yinlar esa ularning jismoniy faolligini oshiradi. Shu sababli o'yin texnologiyalari boshlang'ich ta'limda muhim metodik vosita sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish darsni qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, talaffuzini yaxshilash va nutqiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliyotda keng qo'llaniladigan o'yin turlariga so'z o'yinlari (word games), rolli o'yinlar (role play) va topishmoq o'yinlar (guessing games) kiradi. Masalan, “Word game” jarayonida o'qituvchi rasm ko'rsatadi, o'quvchilar esa uning inglizcha nomini aytadi. “Role play” o'yinida esa o'quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirib, ingliz tilida muloqot qiladi. “Guessing game” o'yinida esa bir o'quvchi so'zni tasvirlaydi, boshqalar esa uni topishga harakat qiladi.

Natijalari va tahlil:

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tajriba-sinov ishlari olib borildi. Unda o'quvchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida ingliz tili darslari o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy metodlar qo'llanildi. Tajriba davomida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, faolligi, lug'at boyligi va nutqiy ko'nikmalari kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'yin texnologiyalaridan foydalanilgan guruhda o'quvchilarning ingliz tilini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ldi. Ular dars jarayonida faol ishtirok etdi, erkin muloqot qilishga harakat qildi va yangi so'zlarni tezroq eslab qoldi. Nazorat guruhida esa o'quvchilarning faolligi

nisbatan past bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni sekinroq kechdi. Bu esa o‘yin texnologiyalarining ta‘lim samaradorligini oshirishdagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuni aytishimiz mumkinki biz hozirgi zomonga moslashgan holatda darslarni qiziqarli va samarali va o‘yinlar orqal o‘rgatishimiz kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak hozirgi zamonda bolarga dars o‘tishda bir nechta narsalarga ahamiyat berish kerak yani ilgariidek eski metoddan ems balki yangi metodlardan foydalanish lozim bu narsa bizga darni qiziqarli va ularni esida qolishlari va tez o‘rganishiga sababchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova L.T. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language pedagogy. – new york: pearson education, 2007.
3. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
7. Lightbown P.M., Spada N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
8. Nation I.S.P. Teaching Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Nunan D. Language Teaching Methodology. – London: Prentice Hall, 1991.
10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
11. Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda“body language” danfoydalanasizmi. 2022.
12. Murtazoyeva Mehribon Ulug‘bek qizi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini rolli o'yinlarorqali o'rgatish metodikasi: nazariya va amaliyot.2025.
13. Samug'janova Xusniya Temurjon qizi.Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish.
14. Ruziyeva Shahnoza. Boshlang'ich sinf o`quvchilarida ingliz tilini o`qitish metodikasi